

«Dekabrda mobil ilovada ba'zi hamkorlarga to'lashda ikki karra keshbek» aksiyasi qoidalari.

30 noyabr 2023 y.

«Dekabrda mobil ilovada ba'zi hamkorlarga to'lashda ikki karra keshbek» aksiyasi «Humans» Mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan, manzil: 100047, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Maxtumquli ko'chasi, 2B uy, STIR 306624856 (Humans) Humans Sodiqlik dasturi doirasida o'tkazilmoqda.

1. Aksiya haqida ma'lumot

1.1 Ushbu Qoidalar matnida bosh harfda yoziladigan so'zlar atamalar hisoblanadi. Atamalar www.humans.uz saytida joylashtirilgan Humans aloqa xizmatlarini ko'rsatish Shartlarida va "Mahsulotlar va xizmatlar vitrinasi" servisidan foydalanish Qoidalarida keltirilgan, agar ushbu Qoidalarda boshqasi nazarda tutilmagan bo'lsa.

1.2 Aksiya ishtirokchilari - quyidagi shartlarga bir vaqtda javob beradiganlar: Humans mobil ilovasida bank kartasini bog'lagan, «Humans Mahsulotlar va xizmatlar vitrinasi» servisidan foydalanadigan mijozlar jismoniy shaxslar, Humans bilan Aloqa xizmatlarini ko'rsatish Shartnomasini va Ishtirokchiga Humans Visa bank kartasi chiqarish uchun "Ravnaq bank" AJ bilan Humans'ga moliyaviy xizmat ko'rsatish Shartnomasini tuzgan mijozlar jismoniy shaxslar.

1.3 Aksiya o'tkazilish davri - 04.12.2023 dan 31.12.2023gacha (jumladan), quyidagi jadvalga binoan toifalar bo'yicha Aksiya o'tkazish muddatlarini hisobga olgan holda:

Toifalar	Keshbek miqdori	Davr
Kommunal to'lovlar va YJXMH	4%	04.12-10.12
Mobil aloqa	4%	11.12-17.12
Davlat xizmatlari	4%	18.12-24.12
Shahar va xalqaro aloqa, Internet, TV	4%	25.12-31.12

1.4 Aksiya o'tkazilish hududi – O'zbekiston Respublikasi.

2. Aksiya tavsifi

2.1 Aksiya o'tkazish davri mobaynida va ushbu Qoidalarga rioya qilinganda, Aksiya Ishtirokchilari ushbu Qoidalarning 1.3 bandda keltirilgan jadvalda ko'rsatilgan muddatlarda to'laganda, ushbu qoidalarning 1.3 bandda keltirilgan jadvalda ko'rsatilgan toifalarga binoan mobil ilovada to'laganda ikki karra keshbek olish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

2.2 Aksiyada "Humans mahsulotlari va xizmatlari vitrinasi" servisidan foydalanishi Humans tomonidan to'xtatib qo'yilmagan yoki yakunlanmagan amaldagi mijozlari, shuningdek Humans'ning boshqa servislarining amaldagi foydalanuvchilari (ushbu Qoidalarning 1.2. bandiga muvofiq) ishtirok eta oladi.

3. Yakuniy qoidalar

3.1 Ushbu qoidalar Aksiya ishga tushgan vaqtdan boshlab kuchga kiradi. Humans bir tomonlama tartibda ushbu Qoidalarni o'zgartirish, Aksiyani bekor qilish huquqini o'zida saqlab qoladi va bu haqida tegishli xabarni Humans Saytida e'lon qiladi. Chop etish sanasi tegishli ma'lumotni Humans Saytida joylashtirish sanasiga mos. Humans Saytida tegishli ma'lumot joylashtirilganda Qoidalar o'zgartirilgan, Aksiya esa uzaytirilgan yoki bekor qilingan hisoblanadi. Humans keshbek miqdorini oshirishi mumkin, bu haqida ishtirokchilar Humans tomonidan Push xabarnoma va ijtimoiy tarmoqlardagi postlar orqali xabardor qilinadilar.

3.2 Ishtirokchining Humans mobil ilovasida hamkorga to'lovni amalga oshirishi jismoniy shaxslarga yo'naltirilgan oferta hisoblangan Qoidalarga to'liq va so'zsiz roziligini bildiradi.